



## ASHTARXONIY IMOMQULIXONNING “MUDHISH QASAM”I

*Abdujalilova Odina Norqul qizi*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada XVII asr Buxoro xonligining hukmdori Imomqulixonning siyosiy faoliyati, uning davlat boshqaruvidagi qat’iyati va tarixda qora dog’ bilan eslanadigan “mudhish qasam”i bilan bog’liq voqealar yoritiladi. Shuningdek, maqolada Imomqulixonning mamlakatni markazlashtirish yo’lidagi harakatlari, ichki tartib-intizomni tiklashga qaratilgan qat’iy choralari hamda bu tadbirlar o’sha davrning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko’rsatgan ta’siri tahlil qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** Ashtarxoniylar sulolasi, Imomqulixon, Nodirmuhammadxon Buxoro xonligi, siyosiy jarayonlar, o’zaro nizolar, Toshkent isyoni, Iskandarxon vafoti, mudhish qasam, xalqchil islohotlar.

Buxoro xonligining Ashtarxoniylar davriga oid tarixiy jarayonlar Markaziy Osiyo siyosiy tuzumining murakkab va serqirra bosqichini tashkil etadi. Bu davrda davlat boshqaruvida yuz bergan islohotlar, ichki ziddiyatlar hamda tashqi munosabatlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatgan. Ashtarxoniylar hukmronligi davri nafaqat sulola almashinuvi, balki Buxoro xonligining keyingi taraqqiyot yo’nalishlarini belgilab bergan muhim tarixiy o’zgarishlar bilan ham ahamiyatlidir.

Ma’lumki, XVI asr oxiri Shayboniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligi o’zaro nizolar ichki kurashlar natijasida davlat yemirilib hokimiyat uchun kurashlar kuchayib keadi. Endilikda taxt uchun Shayboylardan nomzod ham qolmaydi. Ayni shunday bir taxlikali vaziyatda 1601-yildan e’tiboran Buxoro xonligida hokimiyat Ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasi qo’l ostiga o’tadi. Buxoro xonligi tarixida yangi



sulola –Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi boshlanib, 150 yil davomida shu sulola tomonidan boshqariladi. Manbalar ma'lumotiga ko'ra, Ashtarxoniylar Jo'jining o'n uchinchi o'g'li To'qay Temur avlodidan bo'lgan.[Ilhomov Z., 53-b.].

Ashtarxoniylar sulolasining eng yorqin ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bu hech shubxasiz Imomqulixonidir. Imomqulixon ibn Din Muhammadxon 1589-1644-yillarda yashagan, Ashtarxoniylardan bo'lgan uchinchi hukmdor bo'lib 1611-1642-yillarda hukmronlik qilgan. Otasi Din Muhammad 1599-yili vafot etgandan keyin amakilari Boqi Muhammad va Vali Muhammad hukmronligi davrida ma'lum hududni boshqarish ishlari bilan shug'ullangan. Imomqulixon ilk bora tarix sahnasida otasi Din Muhammadxonning Xurosonga yurishdagi mag'lubiyati arafasida tilga olinadi. Otasining sodiq xizmatkori Haqquli yasavulboshi Dinmuhammadxonning rafiqasi hamda uning ikki o'g'li Imomqulixon hamda Nodir Muhammadxonni jang maydonidan olib ketgan ikki otning ikki xurjuniga solib olib qochayotganda Nodir Muhammad oyog'iga dushman tomonidan yog'ilgan o'qlarning biri kelib tegadi. Buning natijasida u umrbod oqsoqlanib qoladi. Keyinchalik, amakisi hukmronligi davrda Imomqulixon Samarqandga hokim etib tayinlanadi. Bundan asosiy maqsad Balxni o'z nazoratida ushlab turish hamda Imomqulixonning valiahd bo'lishining oldini olish edi.

Balx hokimi etib Shoxbek Ko'kaldosh tayinlanadi. Ammo, Balxda tinchlik o'rnatilmasdan balki Shohbek xalqning boshiga juda ko'p jabru zulm soladi. Natijada xalq Imomqulixonga maktub yozib Balx hokimiyatini o'z qo'lga olishni iltimos qiladi. Tez orada Shohbek fitna qurboni bo'ladi jiyanlari kuchayib ketganligidan xavfsizlagan Vali Muhammad Imomqulixonga qarshi fitna uyushtiradi ammo bu fitna uzoqqa bormasdan tezda oshkor bo'ladi. Fitnachilar qatl etiladi. Imomqulixonga qarshi uyushtirilgan ushbu fitnada Vali Muhammadning qatnashmaganligiga qaramasdan o'z jiyanlar bilan o'rtasidagi aloqalari buziladi. Shu tariqa, amaki jiyanlari o'rtasidagi vaziyat chigallashib urush holatigacha boradi



va bo'lib o'tgan ikki o'rtadagi urushda Vali Muhammad yengiladi hamda Imomqulixon g'alaba qozonadi.

Buxoro taxtiga o'tirgan Imomqulixon davlatni ichki boshboshdoqliklarini yo'qotish taraddudida bo'ladi. Shimoldagi chegarani yanada mustahkamlash maqsadida qozoq sultoni Eshimxonning qizi Oyimgaxon oyim qonga uylanadi. Natijada, kki o'rtadagi ittifoqchilik iplari yanada mustahkamlanadi [Zamonov A. 194-195 b.].

Bu davrga kelib mahalliy hukmdorlarning o'zboshimchaligi haddan oshib, bu holat, ayniqsa, o'troq aholi turmush tarziga salbiy ta'sir eta boshlaydi. Imomqulixon esa aynan o'zboshimcha hokimlar harakatini susaytirishga muvaffaq bo'ladi. U Xorazm va Xurosonni qayta qo'lga kiritib olmagan bo'lsa-da, Toshkent, Andijon, Turkiston shaharlariga xavf solib turgan qozoqlar, qalmiqlar va boshqa ko'plab ko'chmanchilarga qarshi kurash olib boradi. Ayrim hollarda ularga yon berib, ko'chmanchilar kuchidan Eron shohlariga qarshi kurashda foydalanadi. [Eshov B., Odilov A. 102-b.].

Imomqulixon o'z hukmronligi davrida O'zbek qabilalari beklarining mustaqilligini birmuncha cheklandi. U Eronliklarga qarshi birgalikda kurashish uchun qozoq sultonlari bilan ittifoq ham tuzgan edi. Qozoqlarni o'z tarafiga olish uchun Imomqulixon, hatto ularga Toshkent, Yassi va ular atrofidagi qo'rg'onlarni inom etgan edi. Lekin qozoqlar inom etilgan xududlar bilan chegaralanmasdan Buxoroga tahdid qila boshladilar.

Imomqulixon shimoliy hududlarga qo'shin tortib borishga majbur bo'ladi. Talas vohasida bo'lib o'tgan xal qiluvchi jangda Buxoro qo'shinlari g'alaba qozonadilar. Bu jangda qozoqlar tomonida turib Qalmaq qo'shinlari ham ishtirok etgan edilar. Qalmaq tuzgan Oyrot xonligi 1630-yilda tuzilgan bo'lib, 1758- yilgacha davlat sifatida yashadi. Dastlab ular qozoqlar bilan birgalikda harakat qilgan bo'lsalarda, keyinchalik ular o'rtasida ziddiyatlar kuchayadi va qalmaq qozoqlarni hozirgi Qozog'istonning shimoliy va sharqiy hududlaridan siqib chiqara



boshlaydilar. Natijada, qozoqlar Movaraunnahr hududlaridan boshpana izlashga majbur bo'lgan edilar. [Mirzayev B., 91-92-b.].

Yuqoridagi ma'lumotlardan aytish mumkinki, Imomqulixon o'z siyosatini o'rta asrlar uchun an'anaviy bo'lgan o'zga hududlarni bosib olib, mamlakat chegaralarini kengaytirishdan boshlagan edi. 1613-yildagi Toshkent voqealari bunga misoldir. Afsuski, Toshkent qirg'ini Imomqulixon siyosatidagi mudhish dog' qoldirgan hodisa bo'ldi.

Albatta, bu o'rinda Imomqulixonning Toshkentni qozoq va qalmiqlar ta'qibini saqlab qolganini ham unutmaslik kerak. Bosqinchilar Movarounnahrda quvib chiqarilgach, Imomqulixon o'z o'g'li Iskandarxonni Toshkentga hokim etib tayinlab, Buxoroga qaytadi. Ammo, Iskandarxon hokimlikning ilk kunlaridan Toshkent aholisiga jabr-zulm o'tkaza boshlaydi. Ayniqsa, soliqlar miqdorining keskin oshirilishi yalpi norozilikni keltirib chiqardi. Toshkent aholisi hokimga qarshi isyon ko'taradi va natijada Iskandarxon o'ldiriladi.

Bu mash'um xabar Imomqulixonga borib yetgach, dunyo ko'ziga qorong'u bo'lib qoladi va Balxga, o'z ukasi Nadirmuhammadxonga maktub yozib, uni bu voqeadan ogoh etadi. So'ngra katta qo'shin bilan Toshkentga yo'l oladi. Nadirmuhammadxon ham akasiga yordam berish uchun Toshkentga yuzlanadi. Aka-ukalar qo'shini birlashib, bir oy mobaynida Toshkentni qamal qilib turishadi. Shahar darvozalaridan biri yondirib yuborilgach, qo'shin shaharga bostirib kiradi.

O'g'lining o'limidan g'azab otiga mingan Imomqulixon askarlariga duch kelgan odamni qilichdan o'tkazishni buyuradi va "to odamlar qoni otimning uzangisiga yetmaguncha qirg'inni to'xtatmayman" deb qasam ichadi. Shu tariqa shaharda misli ko'rilmagan qirg'in boshlanadi. Askarlar yoshu qarini baravar tig'dan o'tkaza boshlaydi. Xonning mash'um qasami hammayoqqa ovoza bo'lgan, shahar darvozalari berkitilgan, bechora xalq kimga dodini aytishni bilmay qolgandi. Toshkentda o'sha paytda taxminan 60-70 ming aholi yashagan, odamlar butunlay qirib tashlangan taqdirda ham qon otning uzangisiga yetmasligi aniq edi.



Qirg'in shu darajaga borib yetadiki, hatto umri jang maydonida, qatlu qirg'inda o'tgan lashkarboshilar ham mazlumlar faryodiga dosh bera olishmaydi va xonga maqsadsiz razolatni to'xtatishni maslahat beradi. Imomqulixon garchi zulm haddan oshganiga, qasos alangasi pasayganiga iqror bo'lsa-da, g'azab ustida ichilgan qasamidan qaytolmasdi. Shu bois, ulamolarga murojaat qilishadi.

Faqihlar "qon uzangiga yetishi uchun shaharni qonga botirish shart emas, bitta kichikroq hovuzni qatl qilinganlar qoni bilan ot uzangisiga yetadigan darajada to'ldirish kerak" deb fatvo berishadi. Shu taxlit shahardagi hovuzlardan birining suvi bo'shatilib, unga qirg'in payti o'ldirilgan odamlar qoni to xonning oti uzangisiga yetguncha qadar oqiziladi. Shundan keyingina bu qirg'in to'xtatiladi va humordan chiqqan xon shaharga yangi hokim tayinlab, Buxoroga qaytadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, qon bilan to'ldirilgan hovuz ancha payt shu holatda turgan va undan badbo'y hid anqib yotgan. Keyinchalik, shaharning shu hududi xalq orasida "Sassiqhovuz" nomini olgan. Ko'kcha dahasidagi bu mahalla yaqin-yaqingacha mavjud bo'lgan. [[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) internet sayti]. To'g'ri, bu Imomqulixonning mudhish qasami juda ko'p aholining umriga zomin bo'ladi, qancha qancha oilalarni boquvchisiz qoldiradi. Lekin Imomqulixonni faqat bu ishi bilan bilan eslash xato bo'ladi. Chunki, u asosan xalq tinch osoyishta hayot kechirishini, davlatni siyosiy jihatdan mustahkamalab turishni istardi.

Imomqulixon hukumronligi davrida darveshlarni qo'llab quvvatlagan, atrofiga olimlar va shoirlarni to'plagan, o'zi ham she'rlar yozgan. O'sha zamon manbalarining birida shunday yozilgan: "Imomqulixon nochorlar ishini yengillashtirdi, arz bilan kelganlarni qaytarmadi, uning zamonida na kambag'al va na bechora qolmagandi. Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida amaldorlariga qattiq turdi, qorong'u tushishi bilan oddiy kiyim kiyib, vaziri va qo'rchi bilan bozorlaru-mahallalarni aylanib oddiy xalqning haqiqiy turmush ahvolidan bohabar bo'lib turardi. Buni xalq bilgani uchun ham Imomqulixon hukmronligi yillari mamlakatda



biron marta ham isyon ko'tarilmagan". Ko'chmanchilar bilan olib borilgan muvaffaqiyatli janglar olib borgan bu hukmdor 30 yildan ortiq hukmronlik qilgan.

Bu davrda mamlakatda markaziy davlat hokimiyati kuchaygan. Hindiston, Eron va Rossiya bilan elchilik munosabatlarini o'rnatgan. Rossiyaning josus elchisi I.D.Xoxlov 1620-22-yillarda Buxoroda bo'lgan. Imomqulixon ko'r bo'lib qolgach, 1642-yilda taxtni ukasi Nadirmuhammadga topshirgan. O'zi hajga ketib umrining oxirigacha o'sha yerda bo'lgan. U Madina shahrida chorbog', Makkadagi Ka'baga kiraverish darvozalaridan biri ostonasi uchun oltin va kumush tutqichli yog'och zina qurdirgan [ [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). Internet sayti].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Buxoroda Imomqulixon hukmronligining oqibati shu bo'ldiki, uning davrida xon hokimiyati nisbatan mustahkamlandi. Nufuzli amirlar va zodagonlar ham xon hokimiyatiga nisbatan dushmanlik munosabatlarini to'xtatib turishga majbur bo'ldilar. Biroq, shunga qaramay, Imomqulixon mamlakatdagi siyosiy tarqoqlikning oldini ololmadi. Uning davrida o'tkazilgan islohotlar natijasida xalq hayotini yaxshilashgan, ko'pgina me'moriy inshootlar qurdirilgan. Ammo, Imomqulixonning jahl ustida ichgan "mudhish qasam"i sababli ko'plab oddiy aholi qirilib, bu voqealar uning faoliyatida o'chmas dog' bo'lib qolgan. Ashtarxoniy Imomqulixon 1644-yilda Makkada vafot etadi va o'z vasiyati bilan Madinaga dafn etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ilhomov Z. A. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 2020.
2. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. Toshkent. 2021.
3. Eshov B. J., Odilov A. A. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 2020.
4. Mirzayev B. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 2025.
5. [www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz). internet sayti
6. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). internet sayti